

**O'QUVCHI YOSHLARINING MUSIQIY QOBILIYATINI
RIVOJLANTIRISH**

(Boshlang'ich sinf o'quvchilari misolida)

Alisher Saddinov

O'zbekiston davlat xoreografiya

akademiyasi Urganch filiali o'qituvchisi

***Annotatsiya:** maqolada o'quvchi yoshlarining musiqiy qobiliyatini rivojlantirish to'g'risida ma'lumotlar beriladi. Yoshlarni bolalik davridanoq musiqiy bilim bilan tanishtirish va shu orqali uning estetik didni oshirish hamda jismonan sog'lom, ma'nan yetuk bo'lib yetishishida, musiqaning o'rni haqida fikrlar bildirilgan. Bolaning intellektual salohiyatini oshirishdagi musiqaning ahamiyati haqida so'z yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:** yosh avlod, musiqiy ta'lim, musiqa madaniyati, estetika, boshlang'ich sinf o'quvchilari, musiqiy savodxonlik.*

***Аннотация:** в статье представлена информация о развитии музыкальных способностей младших школьников. Высказывались мнения о роли музыки в приобщении молодежи к музыкальным знаниям с детства и тем самым в повышении их эстетического вкуса, выращивании физически здоровых и интеллектуально зрелых. Обсуждается значение музыки в повышении интеллектуального потенциала ребенка.*

***Ключевые слова:** молодое поколение, музыкальное образование, музыкальная культура, эстетика, учащиеся младших классов, музыкальная грамотность.*

***Abstract:** the article provides information on the development of musical abilities of primary schoolchildren. Opinions were expressed about the role of music in introducing young people to musical knowledge from childhood and thereby increasing their aesthetic taste, growing physically healthy and intellectually mature. The importance of music in increasing the intellectual potential of a child is*

discussed.

Key words: *young generation, music education, musical culture, aesthetics, primary school students, musical literacy.*

Musiqa san'ati estetik tarbiyaning muhim omili sifatida yosh avlodning manan sog'lom bo'lib shakllanishida kuchli ta'sir ega. Oilada, bog'chada, maktabda musiqa mashg'ulotlarini maqsadga muvofiq tarzda uyushtirish, yosh avlodning ichki dunyosini boyitish va san'atni to'g'ri tushunishdagi samarali yo'llardan biridir. Shu boisdan ham boshlang'ich sinflarda musiqiy idrok musiqaning inson tuyg'ularida aynan muvofiq ravishda aks etishi va insonning musiqiy asarni shaxsan idrok etishi hamda insonning musiqiy va hayotiy tajribalari, bilimi, emotsional kechinmalari va asar qadrini birlashtirishga yo'naltirilgan murakkab faoliyat ekanligi ko'rsatiladi.

Boshlang'ich sinfda musiqa idroki (musiqa tinglash) san'atdagi go'zallikni idrok etish asosida estetik hislarni tarbiyalashda alohida ahamiyatga egadir. Musiqaviy didni tarbiyalash faqat san'at asarlarigagina emas, balki voqelikning turli hodisalariga ham ongli va faol estetik munosabatda bo'lishning asosi hisoblanadi.

Maktab yoshdagi bolalarga ham jamoa, guruh shaklida va yakka tarzda ishlashni mohirlik bilan qo'shib olib borish darsni tashkil etishda asosiy masala hisoblanadi. O'quvchi o'quv topishiriqlarini tashkil eta olishi, rejalashtira bilishi va bajara olishi uchun uni jamoa bo'lib ham, yakka tarzda ishlashga ham o'rgatish muhim ahamiyatga egadir.

Bugungi kunda jamiyatimizda "har qanday dars o'qituvchining maktab o'quvchilari o'quv faoliyati ustidan nazorat qilib borishni taqazo etadi. Bu o'quv materialini tushintirish va o'zlashtirish xarakterini, o'quv va ko'nikmalarning shakllanish jarayonini ko'z oldiga keltirish imkonini beradi. Maktab o'quvchilari o'qishining borishini tahlil qilish o'qituvchiga darsning ijobiy jihatlarini rivojlantirish va ko'zga chalingan salbiy holatlarni kamaytirish maqsadida unga tegishli tuzatishlar kiritish imkonini beradi".¹

Yosh avlodning aqlan rivoshlanish jarayonini kuzatish natijasida shu narsa

¹ Fayziev O.. Maktabda musiqiy tarbiya. T.1991
www.tadqiqotlar.uz

ayon bo'ladiki, o'n, o'n bir yoshlarda, ya'ni uchinchi va to'rtinchi sinf o'quvchilarida atrofda voqelikka ongli munosabatning o'sib borishi kuzatiladi. Shaxsning shakllanishiga jismoniy rivojlanish katta ta'sir ko'rsatadi. Bu davrda bolalar o'smirlik davrining birinchi bosqichini boshdan o'tkazadilar. Bu bosqich organizmning tez o'sishi, mushak kuchlarining ortib borishi, asab-miya tizimining yanada rivojlanishi, jinsiy yetilishning boshlanishi bilan xarakterlanadiki, ular tovush apparatining (tovush bog'lamlari, bo'g'iz, yuqori va quyi rezonatorlar, nafas organlarining) yanada rivojlanishi bilan bevosita bog'langan bo'ladi. Shu munosabat bilan musiqaviy-estetik tarbiya yanada chuqurroq bo'ladi, u o'ziga diqqat – e'tibor bilan qarash elementlarini, o'quvchilarning o'zlari mustaqil hal qiladigan muammoli masalalarni qamrab oladi.

Boshlang'ich sinf bolalarini haqiqiy musiqani tinglashga, chinakam badiiy asarni badiiylikdan yiroq asardan ajrata bilishga o'rgatish ayniqsa muhimdir. O'quvchilar musiqa o'qituvchisi ko'magida o'zlarining musiqaviy taassurotlarini tushinib olishga, tinglanayotgan musiqani, musiqaviy obrazlarni baholashga o'rganadilar, mashhur kompozitorlarning hayoti va ijodi bilan tanishadilar, bu esa ularning tanlanayotgan asarlarni yaxshiroq tushinishlariga yordam beradi.

Musiqqa savodi musiqaga, uning ifoda vositalariga ongli munosabatda tarbiyalaydi, musiqaning mazmunini tushunib olishga yordam beradi, eng muhimi esa notaga qarab kuylash va ashula aytish malakalarini hosil qilish, garmonik eshitish qobiliyatini o'stirishga ta'sir ko'rsatish, xor ovozlarni aniq talaffuz etishga va xor bilan ijro etish sifatini oshirishga qulaylik tug'dirish yo'li bilan sinfda qo'shiqlar o'rgatishni osonlashtiradi. O'quvchilar mustaqil qo'shiq ayta oladigan va notanish kuylarni notaga qarab o'rgana oladigan bo'lgan vaqtlardagina musiqa savodini o'rganishdan ko'zlanadigan maqsadga erishilgan bo'ladi.

Musiqqa savodini o'rganish bolalarning musiqa tovushlarini eshitish sezgilarining o'sishiga asoslanishi kerak. O'quvchi biror tovushni ovoz bilan esga tushurishdan oldin uning qanday yangrashini aniq va ravshan tasavvur qilishi va eshitib bilishi, ya'ni “ko'ryapman-eshityapman-kuylayapman” deb, ko'zga ko'rinadigan narsadan eshitiladigan narsaga qarab borishi lozim.

Ko'pchilik bo'lib qo'shiq aytishda ham musiqa savodini o'rgatish jarayonida ham eshitish qobiliyati, metr-ritm sezgisi taraqqiy etadi. Ma'lumki, musiqa tinglayotgan o'quvchilar o'zlariga tanish bo'lgan asarni yangicha ijroda necha martalab eshitishga qodir bo'ladilar, bir musiqaning o'zi turlicha ijro etilgan disklarni to'playdilar, bu esa musiqa asariga boshqacha nazar tashlashga, undagi yangi ranglarni his etishga, uni yanada chuqurroq tushinishiga imkon beradi.

Dars jarayonida har bir o'quvchi, agar o'z fikrini samimiy bildirsa, munozaraning to'la huquqli ishtirokchisi sifatida o'zini faol namoyon etish imkoniyatiga ega boladi. Bu esa mustaqillikni, ijodiy faollikni, o'quvchilarning badiiy rivojlantirishning juda yaxshi vositasidir. Bolalarning hayotiy tajribalariga tayangan holda har bir musiqa asari zamirida ma'lum voqelik, his-tuyg'u va fikrlar aks etishi haqida tushuncha beriladi. Bu faqatgina dars jarayonida turli musiqa faoliyatlarini bajarishda, asar va uning obrazlarini idrok etish bilan amalga oshadi.

Musiqa savodi musiqa darsining bo'limlaridan biri bo'lib, musiqa ta'limida katta rol o'ynaydi. Musiqa darsini qiziqarli tashkil etishda nota savodxonligi muhim bo'lib, bola notalarning nomi va tovushlarning baland-pastligini birinchi sinfda ham tanishgani, ikkinchi sinfda esa qo'shiq kuylash malakalari va ijrochilik turlari, yakkanaovozlik, yakkaxonlik, darsda tinglanadigan kuylar haqida chuqur tushunchalarga ega bo'lib borishlaridadir. Musiqa darsida barcha faoliyatlar muayyan mavzu asosida mantiqan o'zaro bog'lanadi, natijada darsning pirovard bir butunligi vujudga keladi.

Musiqa savodi barcha faoliyatlarni nazariy birlashtiruvchi faoliyat sifatida ahamiyatga egadir. Darsda qaysi faoliyat mashg'uloti musiqa idroki, qo'shiq aytish, musiqa bilan harakat, cholg'uchilik va boshqalar qo'llanilmasin, uning amaliyotida foydalanilayotgan asar o'rganiladi va uning xususiyatlari ya'ni janri, tuzilishi, ijrochiligi va hokazolar haqida yangi tushunchalar hosil bo'ladi. Su sababdan musiqa savodi faqatgina nota savodi uslublaridan iborat bo'lib qolmay, balki o'quvchilarning umumiy musiqiy bilim doirasini tarkib toptiruvchi, umumiy bilim tushunchalar majmuasini singdirib borishdan iboratdir.

Boshlang'ich sinflarda musiqa savodi eng avvalo notagacha bo'lgan davrni o'z

ichiga oladi, ya'ni birinchi chorak davomida o'quvchilar notagacha bo'lgan davrni o'rganadilar, tanishadilar va ma'lum tushunchalarga ega bo'ladilar. Ikkinchi chorakdan boshlab esa ular jamoaviy kuylash va lad haqidagi tushunchalarni o'rganishni boshlaydilar. Notagacha bo'lgan davrda ular ritmlarni his etish, chapaklar jo'rligida ohangga mos chalish, sekin-asta o'qituvchi bajarayotgan ritmik harakatlarni bajarish, ohangni his etib unga mos holda ovozni ishlatish va hokazolarni bajaradilar.

Umumta'lim maktablarida musiqa savodxonligi musiqa darsining bo'limlaridan biri bo'lib jamoa bo'lib kuylash(xor) va nasbatan ikkinchi darajali o'rin tutadi. Ushbu faoliyat musiqa nazariyasi va tarixidan boshlang'ich ta'lim beradi, bolalarning bilim saviyasini oshirishda qo'l keladi. Musiqa savodi musiqaga, uning ifoda vositalariga ongli munosabatni tarbiyalaydi, musiqaning mazmunini tushunib olishga yordam beradi.

Eng asosiysi to'rtinchi sinflarda notaga qarab kuylash va qo'shiq aytish malakalarini hosil qilish, garmonik eshitish qobiliyatini o'stirishga ta'sir ko'rsatish, xor ovozlarni aniq talaffuz etishga va xor bilan ijro etish sifatini o'stirishga, eshitishga qulaylik tug'dirish yo'li bilan sinfda qo'shiqlar o'rganishni mustahkamlashni bajaradi. Musiqa savodiga musiqa darsida 10-15 daqiqa ajratiladi, shu sababli har doim qo'shiq o'rganish va musiqa asarlarini tinglash jarayonida kuylash va eshitish malakalarini hamda musiqiy bilimni mustahkamlab chiniqtirib borish kerak.

Dars jarayonida bolalarga musiqa ifoda vositalariga oid qiziqarli savol-javob, kichik testlarni o'tkazish ham mumkin. Yana musiqa darsida muhim ko'rinishlardan biri cholg'u asboblari bilan o'quvchilarni muntazam ravishda tanishtirib borishdan iboratdir.

Musiqiy metodik vositalar barcha faoliyatlar amaliyotida yetakchi hususiyatga ega ekanligi davlat ta'lim standartlarida ham alohida ta'kidlab o'tilgan. Shu sababdan ham musiqa darsi tashkil etilishining eng asosi hisoblangan darsda musiqiy faoliyat turlaridan foydalanishda musiqa o'qituvchisi dars jarayonida bunday faoliyat turlaridan oqilona foydalanishni yo'lga qo'yishi zarur. Har bir

qo'shiq o'rganilar ekan qo'shiq harakteridan kelib chiqib uning ifoda vositalari ham shunga mos bo'ladi. Shu bilan birga o'quvchi qo'shiqdagi alteratsiya va dinamik belgilarini o'rganib, shular asosida qo'shiqning mazmunini ochib berishi va sof kuylashi lozim.

Musiqqa o'qituvchisi darsda eng muhim faoliyat turini tashkil etuvchi jamoa bo'lib qo'shiq o'rgatish jaryonida o'zaro hurmat ko'nikmalarini, odob-axloq qoidalarini, oddiy xalqimizning xalqchilligidan olib, barcha ma'naviy tarbiyani yosh avlodga yetkazishimiz lozim. Hozirgi zamonda ayrim yoshlarimizning tarbiyasi ayanchli xolatda. Hatto zo'r iqtidor egasi bo'la turib, nojo'ya yo'llarga kirib ketayotgan yoshlarimiz ham uchramoqda. Shuning uchun yoshlarning bo'sh vaqtlarini ko'ngilli ta'minlashimiz, o'zaro bahs-munozarali badiiy kechalarni o'tkazishimiz lozim.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Musiqqa ta'limi o'quv fani o'quvchilarning ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini shakllantirishga milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, o'quvchilarda ijobiy mahorat va badiiy didni o'stirishga, fikr doirasini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashga xizmat qiladi. Musiqqa ta'limi fani umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan barcha o'quv predmetlari, jumladan, adabiyot, tasviriy san'at, jismoniy tarbiya, mehnat va boshqa fanlar bilan bog'lanadi.

Musiqqa madaniy hayotimizda keng o'rin tutgan, inson shaxsini rivojlantirishda muhim kasb etadigan san'at turlaridan biridir. Musiqqa tarbiyasi nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri bo'lib, atrofdagi go'zal narsalarni to'g'ri idrok etishiga va qadrlashga o'rgatadi. Musiqqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi va madaniy dunyoqarashini shakllantiradi. Musiqqa inson hissiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lib, o'quvchilarning nafosat olamiga olib kirish va ahloqiy-g'oyaviy tarbiyalashning muhim vositasidir. Musiqqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi va madaniy dunyoqarashini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fayziev O.. Maktabda musiqiy tarbiya. Toshkent – 1991-yil

2. Yo'ldoshev Sh, Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent, - Fan, 2001 - yil.
3. Jabborov A.H. O'zbek kompozitorlari va musiqashunoslari. –T., 2004.
4. Sharipova G. Musiqa o'qitish metodikasi. TDPU, 2004 – yil
5. Tolipova Sh. Pedagogik texnologiyalar – do'stona muhit yaratish omili. – Toshkent, YUNIREF, RTM, XTB, 2005 – yil.
6. Ishmuhammedov R, Abduqodirov A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, - Fan, 2008 – yil.